O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 338.48 (575.1)

ZARIPOV TOXIRJON YUSUFBOY O‘G‘LI

ZIYORAT TURIZMI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

710110401- “Turizm(ziyorat turizm)”mutaxassisligi bo‘yicha magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A S I Y A

Ilmiy rahbar:
i.f.d.(DSc), professor A.N. Norchayev

TOSHKENT – 2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Turizm va mehmonxona biznesi” kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar _____ **i.f.d., prof. A. Norchayev**

Kafedra mudiri _____ **i.f.d., prof. A. Eshtayev**

Kechki ta’lim va Magistratura

fakulteti dekani _____ **i.f.d., prof. J.Karimqulov**

Men,

Zaripov Toxirjon Yusufboy o‘g‘li

(F.I.Sh.)

ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko‘chirmachilik holati yo‘qligiga javob beraman. Ko‘chirmachilikka yo‘l qo‘yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va “qoniqarsiz” baho qo‘yilishidan xabardorman.

_____ 22 may 2025

(talabaning imzosi) *(kun)* *(oy)* *(yil)*

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
"TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI" KAFEDRASINING
№ 34 BAYONNOMASIDAN
KO'CHIRMA

"18" aprel 2025 yil **Toshkent shahri**

Raislik qiluvchi: kafedrasi mudiri, i.f.d., prof. A. Eshtayev

Qatnashganlar: Kafedra professori A. Abduvohidov, professor A. Norchayev, proffessor M. Aliyeva, professor S.Safayeva, professor D. Abidova, PhD M.Nurfayziyeva, PhD D.Umirova, PhD N. Jo'rayeva, katta o'qituvchi D. Raximova, katta o'qituvchi M.Mo'xanov, katta.o'qituvchi N. Oppoqxonov, katta o'qituvchi A. Baxromov, katta o'qituvchi B. Xoshimov, katta o'qituvchi F. Halimova, katta o'qituvchi H. Egamnazarov assistent N.Rasulova, katta o'qituvchi M. Xushnazarova (kotiba)

KUN TARTIBI:

"Turizm va mehmonxona biznesi" kafedrasi 71010401-Turizm (faoliyat turlari bo'yicha), 71010401- Turizm (Ziyorat turizmi) mutaxassisligi 2- kurs MTXT-01, MTXT-21 va MTZ-01 guruh talabalarining dastlabki himoyalari muhokamasi

---

(A. Eshtayev)

Ushbu masala yuzasidan kafedra mudiri professor A. Eshtayev so'zga chiqib, jumladan, MTXT-01, MTXT-21 va MTZ-01 guruh talabalarining dastlabki himoyalari grafigiga asosan 2025-yil 9-apreldan 17-aprelgacha quyidagi talabalarning magistrlik dissertatsiyalari dastlabki himoyasi rejalashtirilganligi to'g'risida axborot berib o'tdi. Shuningdek, dastlabki himoya natijalariga ko'ra komissiya a'zolari tomonidan ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni yakuniy himoyagacha tezkorlik bilan bartaraf etishlari lozimligi ta'kidlandi:

1. MTZ-01 guruh talabasi Zaripov Toxirjon "Ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirish yo'llari" mavzusidagi magistrlik dissertasiyasi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yaxti yaxshi yoritilmagan. Ikkinchi bobda kamchiliklar mavjud va boblar oxirida xulosalarda kamchiliklar mavjud.

ANNOTATSIYA

Mazkur magistrlik dissertatsiyasi O‘zbekistonda ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirish yo‘llarini aniqlash, tahlil qilish hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Ishda ziyorat turizmining nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari va xususiyatlari chuqur o‘rganilgan bo‘lib, ayniqsa, O‘zbekistonning boy diniy merosi asosida bu turdagi turizmni yanada rivojlantirish imkoniyatlari tahlil etilgan. Dissertatsiyada O‘zbekistondagi ziyorat turizmining mavjud holati SWOT tahlil asosida baholangan, muammolar va imkoniyatlar aniqlangan. Xususan, infratuzilma yetishmovchiligi, 'Halol' standartlari tatbiqining zaifligi, xizmatlar sifati pastligi kabi masalalar muhokama qilinib, ularni bartaraf etish uchun xorijiy tajriba asosida samarali yo‘llar taklif etilgan. Xalqaro bozorda O‘zbekiston ziyorat turizmini ilgari surish strategiyalari ham ishlab chiqilgan. Dissertatsiyada statistik tahlillar, ilmiy adabiyotlarga tayanilgan taqqoslovchi tahlil va monografik usullardan keng foydalanilgan. Ilmiy ishda O‘zbekistonning turizm salohiyati, xususan Buxoro, Samarqand, Termiz kabi shaharlardagi muqaddas qadamjolarni rivojlantirish yo‘nalishlari aniq belgilab berilgan. Tadqiqot natijalari asosida virtual yo‘riqnomalar, “aqlli” ziyorat texnologiyalari, “Pilgrim” vizasi imkoniyatlaridan foydalanish, hamda transport-logistika infratuzilmasini kuchaytirish bo‘yicha qator amaliy takliflar ilgari surilgan. Dissertatsiya O‘zbekistonda ziyorat turizmini iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida shakllantirishga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ish hisoblanadi.

ANNOTATION

This master's thesis is dedicated to identifying and developing pathways for improving the pilgrimage tourism infrastructure in Uzbekistan. The research comprehensively explores the theoretical foundations and historical development stages of pilgrimage tourism, with a particular focus on the potential to leverage Uzbekistan's rich religious and cultural heritage to strengthen this segment of the tourism industry.

A SWOT analysis was used to assess the current state of pilgrimage tourism in Uzbekistan. The study identifies major challenges such as underdeveloped infrastructure, weak implementation of "Halal" standards, and insufficient service quality. Drawing from international experiences, the thesis proposes strategic and practical solutions to address these issues.

Furthermore, the research develops strategic recommendations to promote Uzbekistan in the global pilgrimage tourism market. It emphasizes the importance of key destinations such as Bukhara, Samarkand, and Termez, which are home to sacred sites of high religious and historical significance.

The thesis employs methods including statistical analysis, comparative studies, and monographic observation. Recommendations include introducing virtual guides, implementing smart pilgrimage technologies, expanding the use of the special "Pilgrim" visa, and improving transport and logistics infrastructure.

Ultimately, the research aims to provide a scientific and practical contribution to the formation of pilgrimage tourism as a strategic and sustainable sector within Uzbekistan's national economy.

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I BOB.	**ZIYORAT TURIZMI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI**	10
1.1.	Ziyorat turizmining o‘ziga xos xususiyatlari	10
1.2.	Ziyorat turizmini tashkil qilishda infrastrukturani rivojlanish tendensiyalari	17
1.3.	Ziyorat turizmini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	22
	Birinchi bob bo‘yicha xulosalar	34
II BOB.	**O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING TAHLILI**	36
2.1.	O‘zbekistonda ziyorat turizmining rivojlanish holati SWOT tahlili	36
2.2.	O‘zbekistondagi ziyorat turizmi obyektlaridan foydalanishda “Halol” standartlar bo‘yicha baholash	44
2.3.	Xalqaro ziyorat turizm bozorida O‘zbekistonni targ’ib qilish	49
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar	55
III BOB.	**O‘ZBEKSTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI**	57
3.1.	O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning imkoniyatlari	57
3.2.	O‘zbekistonda ishlab chiqilgan ziyorat turizmi marshrutlari	69
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar	75
	XULOSA VA TAKLIFLAR	77
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	79
	ILOVALAR	

KIRISH

Disertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Dunyo miqyosida islomiy tamoyillarga mos turizm xizmatlari turlarining ortib borishi va aholi daromadlarining o‘sishi natijasida, turizm sohasida islomiy qadriyatlarga asoslangan turizmning ulushi yil sayin ortib bormoqda. 2024-yilda diniy turizm bozori hajmi 1 293, 71 milliard dollarni tashkil etib, ayrim tadqiqotlarga ko‘ra bu ko‘rsatkich 2031-yilda 2 010,41 milliard dollarni tashkil etishi prognoz qilingan. Ushbu prognozlar bo‘yicha diniy turizmning yillik o‘sish su’ati 6,5 foizni tashkil etadi[1]. Bugungi kunda iqtisodiy erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholining daromadlarini oshirish ustuvor vazifadir. Bunda turizm sohasini rivojlantirish va uni jahon darajasiga olib chiqish asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Butunjahon turizm tashkiloti (UN-TOURISM)ning ma’lumotlariga ko‘ra, xalqaro turistik tashriflar soni 2024-yilda 1,4 milliardga, soha tushumlari esa 1,6 trillion AQSh dollarini tashkil etdi va bu pandemiya oldidagi ko‘rsatkichlarning deyarli to‘liq (99%) tiklangani bildiradi. Bu 2023-yilga nisbatan 11% yoki 140 million xalqaro sayyohlar sonining o‘sishini anglatadi. Ayrim hisob-kitoblarga ko‘ra 2025-yilga kelib xalqaro turistlar soni 1,46 milliard turistni tashkil etishi bashorat qilingan[2].

Turizm sohasidagi istiqbolli yo‘nalishlarni rivojlantirish uchun har bir modul va turistik tizimning o‘ziga xos xususiyatlarini, ularni boshqarish usullarini hamda sohani rivojlantirishga ta’sir etuvchi nazariy jihatlarni chuqur o‘rganish zarur. Turizm tizimi modullari tarkibiga turistik resurslar hamda ziyorat turizmi faoliyatida qo‘llaniladigan obyekt va jarayonlar kiradi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillaridan boshlab turizm sohasi rivojiga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. So‘nggi yillarda esa O‘zbekiston xalqaro miqyosda yangi turistik yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda. Mavjud turistik

[1] https://www.coherentmarketinsights.com/industry-reports/religious-tourism-market
[2] https://www.statista.com/statistics/1360754/global-cross-border-trips/